

YOSHLARDA MUOMALA ETIKETI METODIKASI

Hikmatova Gulandom

Buxoro viloyati Buxoro tumani Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi 6-umumiy o'rta ta'lim maktabining Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada hozirgi kunda dolzarb muammoga aylanib borayotgan yoshlarning muomala etikasi va kiyinishi, yurish- turishi haqida ma'lumot berilgan. Ona tili fanida o'quvchilarning nutqiy etikasi bilan ishlash salohiyatlari ko'rsatib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Etiket, muomala, madaniyat, so'z, to'g'ri talaffuz

Pedagog o'quvchilar bilan muomala qilar ekan, juda mayda detallarni ham anglab olishga qodir bo'ladi, bu detallar sirdan qaraganda unchalik ahamiyatli bo'lmay shaxsdan sodir bo'layotgan, uni tushunish uchun juda muhim bo'lgan zarur ichki jarayonlar ko'rinishlarining alomatlarini bo'lishi ham mumkin.

O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqot bo'lishi uchun o'qituvchi etarli darajada qobiliyatga ega bo'lishi kerak, hamda o'z-o'ziga doimo quyidagi savollarni berishi va unga javob berishga harakat qilishi kerak: Nimaga o'rgatish?

Kimni o'rgatish? Qanday o'rgatish? Nimaga o'rgatish:

a) Im-fandagi yangiliklarni anglash, yangi fan terminlarini tushunish, o'quv predmetini to'liq o'zlashtirish; b) malaka, ko'nikma va qobiliyatni shakllantirish; v) o'quv predmetlari o'rtasidagi bog'liqlikni amalga oshirish; g) o'quv mazmunini tushunarli tizim asosida ko'rish. Kimni o'rgatish:

a) o'quvchilarning ba'zi psixik xususiyatlarini (eslab qolish, nutq, fikrlash) hamda ularni qay darajada o'qimishli, tarbiyali ekanliklarini aniqlash; b) o'quvchilarning bir darajadan ikkinchisiga o'tishidagi qiyinchiliklarni oldindan aniqlash;

v) o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishda bolalariiiig dalillari, fikrlarini hisobga olish;

g) o'quvchilardagi turli psixik o'zgarishlar va rivojlanishni hisobga olib o'z pedagogik mehnatini tashkil etish; d) iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash, yakka holdagi ishni tashkil etish.

Qanday o'rgatish:

a) ish jarayonida ishlatiladigan kuch va ketadigan vaqtni hisobga olgan holda o'qitish va tarbiyalashning turli usullari majmuini ishlatish.<sup>1</sup> Hozirgi kunda tashqi qiyofani nazorat qilish, nutqni egallash, pedagogik munosabat madaniyatini egallash, tashkilotchilik mahorati, o'quv-tarbiya jarayonini boshqarish uslublarini egallash. Munosabatlarni boshqarish uslublari: 1. Avtoritar uslub 2. Demokratik uslub 3. Liberal uslub 1. Avtoritar uslub: - o'zi yakka holda guruh faoliyatini yo'nalishini belgilaydi; - o'zi ko'rsatma-buyruq beradi; - javobgarlikni o'z bo'yniga oladi; - so'zsiz bo'ysuninishni da'vo etadi; - qattiq intizomni talab etadi.<sup>2</sup> Xalqimiz orasida "bug'doyga qanday e'tabor bersang, bolaga undan ham ko'proq nazar tashlashing kerak", degan ibora bejizga aytilmagan. Nega endi aynan bug'doy? Chunki bug'doy nafaqat xalqizning, balki butun bashariyatning eng qadrlil mahsuloti hisoblanadi. Shuning uchun ham farzandning tarbiyasini, uning muomala etikasini bug'doyga qarashdan ham ustunroq ko'rishgan. Insonlar o'rtasidagi muloqot jarayonida nutq odob-axloqi muhim rol o'ynaydi. Bu vaziyatning ba'zi bir lahzalari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan va madaniy darajasi, jinsi, yoshi, munosabatlar darajasi, aloqa ishtirokchilarining tanishi tufayli iliq munosabatlarni ifodalashning verbal shakllari orqali yuzaga chiqadi. Nutqiy vaziyat har doim

<sup>1</sup> U SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 2 | ISSUE 8 | 2021 ISSN: 2181-1601 Uzbekistan

[www.scientificprogress.uz](http://www.scientificprogress.uz) Page 784

<sup>2</sup> SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 2 | ISSUE 8 | 2021 ISSN: 2181-1601 Uzbekistan [www.scientificprogress.uz](http://www.scientificprogress.uz) Page 785 -

gapiruvchisi, uning suhbatdoshi, nutq joyi va vaqti, aloqa motivi va maqsadi, suhbat mavzusi, aloqa vositalariga egadir.

Nutqiy etiket ijtimoiy-madaniy va kommunikativ-strategik normativligi xulq-atvori, uni o'rganish odob-axloq va xushmuomalalikning asosiy ko'rinishlarini isbotlab beradi. Xushmuomalalik muammosining lingvistik omillari so'nggi yillarda chet el tilshunolaridan, P. Braun va S. Levinson, G. Kasper, Lakoff, R. Uotts<sup>51</sup> va rus tadqiqotchilari Ye. A. Zatsepina, T., ning ilmiy tadqiqotlari yuzaga keldi. Ilmiy-pedagogik adabiyotlarda quyidagi munosabat turlari o'quvchilarning nutqiy etikasining shakllanishi uchun muhim omil ekanligi aytib o'tilgan. ko'rsatilgan:

- hamkorlikdagi munosabat;
- bivosita munosabat;
- do'stona munosabat,
- nosamimiy munosabat;
- oraliqdagi munosabat;
- bekorchi munosabat;
- qo'rquv orqali munosabat;
- dialog va monolog<sup>3</sup>

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, o'quvchilar bilan muomala qilishda, ularning fikri, his-tuyg'usini inobatga olgan ma'qul. Do'stona va dialogli munosabatlarning o'rnatishning o'ziyoq ularni nutq etiketiga bo'lgan muhabbatining oshishiga sababchi bo'ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. U SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 2 | ISSUE 8 | 2021 ISSN: 2181-1601 Uzbekistan [www.scientificprogress.uz](http://www.scientificprogress.uz) Page 784
2. SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 2 | ISSUE 8 | 2021 ISSN: 2181-1601 Uzbekistan [www.scientificprogress.uz](http://www.scientificprogress.uz) Page 785
- 3 O'QITUVCHI VA O'QUVCHILAR O'RTASIDAGI MULOQOT Polvonnazir Masharipovich Saparov Sarvar Bahrom o'g'li Otayev Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumanidagi 27-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchilari

---

<sup>3</sup> O'QITUVCHI VA O'QUVCHILAR O'RTASIDAGI MULOQOT Polvonnazir Masharipovich Saparov Sarvar Bahrom o'g'li Otayev Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumanidagi 27-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchilari